

Zoologiya kolleksiyasida qancha tur saqlanadi?

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti kolleksiyasi - Markaziy Osiyodagi eng katta kolleksiyalardan biri hisoblanib, bu O'zbekistonning milliy boyligi sanaladi. Zoologiya kolleksiyasi 1935-yilda tashkil qilingan. Zoologiya kolleksiyasida **7 ta noyob kolleksiya** bo'limlari mavjud.

Bugungi kunda Zoologiya kolleksiyasida **4806 ta tur** bo'yicha **60000 dan ortiq namunalar** saqlanib kelinmoqda. Bu namunalar AQSH, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Ozarbayjon, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Qozog'iston, Belgiya, Ukraina, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi dunyoning turli xil davlatlaridan olib kelingan.





Entomologiya kolleksiyasida:

3903 ta tur;

29242 ta namuna.

Gerpetologiya kolleksiyasi:

70 ta tur;

23968 ta namuna.

Teriologiya kolleksiyasi:

111 ta tur;

6685 ta namuna.

Ixtiologiya kolleksiyasi:

70 ta tur;

4043 ta namuna.

Gidrobiologiya kolleksiyasi:

12 ta tur;

1000 dan ortiq namuna.

Ornitologiya kolleksiyasi:

328 ta tur;

5514 ta namuna.

Parazitologiya kolleksiyasi:

312 ta tur

2000 dan oshiq namuna mavjud.